

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.02.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

DONAYEVA FERUZA BURXON QIZI

**SANOAT KORXONALARIDA AQLLI ISHLAB CHIQARISH
TIZIMLARINI JORIY ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.03 – “Sanoat iqtisodiyoti”

**Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in
Economic Sciences**

Donayeva Feruza Burxon qizi

Sanoat korxonalarida aqlli ishlab chiqarish tizimlarini joriy etishni
takomillashtirish..... 3

Донаева Феруза Бурхан кизи

Совершенствование внедрения интеллектуальных производственных
систем на промышленных предприятиях..... 27

Donaeva Feruza Burkhan kizi

Improving the implementation of smart manufacturing systems in industrial
enterprises..... 53

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 57

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.02.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

DONAYEVA FERUZA BURXON QIZI

**SANOAT KORXONALARIDA AQLLI ISHLAB CHIQARISH
TIZIMLARINI JORIY ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.03 – “Sanoat iqtisodiyoti”

**Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.3.PhD/Iqt6744 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezюме)) Ilmiy kengashning web-sahifasida (www.tdtu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Muxitdinova Kamola Alisherovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Tillaxodjayev Muzaffarxo‘ja Abdupattaxovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Umarov Ilhomjon Yuldashevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvshi DSc.03/2025.27.I.02.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “27” avgustda soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100095, Toshkent sh., Univeritet ko‘chasi, 2-uy., Tel.: (+99871) 207-14-64; e-mail: tstu-info@tdtu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (137-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100095, Toshkent sh., Universitet ko‘chasi, 2-uy., Tel.: (+99871) 207-14-70

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “____” avgust kuni tarqatildi.
(2026-yil “____” avgustdagi ____ raqamli reyestr bayonnomasi.)

M.A. Ikramov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

O.I. Begmullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent

G.J. Allayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. XXI asrning ikkinchi oʻn yilligidan boshlab, jahon iqtisodiyoti tubdan oʻzgarib, raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish sohasining markaziy drayveriga aylandi. Sanoat 4.0 konsepsiyasi – kiber-fizik tizimlar (CPS), Buyumlar interneti (IoT), sunʼiy intellekt (AI) va katta maʼlumotlar (Big Data) tahlilining yaxlit integratsiyasi – anʼanaviy ishlab chiqarishni “aqlli” ishlab chiqarishga aylantirmoqda. Aqlli ishlab chiqarish global bozori (Smart Manufacturing Market) 2024-yilda 233,33 mlrd AQSh dollariga baholangan boʻlib, prognozlarga koʻra, 2025-yildagi 263,22 mlrd dollardan 2029-yilga kelib 479,17 mlrd dollargacha oʻsishi kutilmoqda. Mazkur davrda yillik oʻrtacha oʻsish surʼati 15,5 foizni tashkil etishi kutilmoqda¹. Ushbu oʻsish surʼati ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida avtomatlashtirish texnologiyalariga boʻlgan ehtiyojning ortishi, 3D bosib chiqarish texnologiyalariga yoʻnaltirilayotgan davlat investitsiyalari, shuningdek, “raqamli egizaklar” (digital twins), uskunalarining holat monitoringi va sunʼiy intellekt kabi ilgʻor texnologiyalar yordamida ishlab chiqarishdagi toʻxtalishlar hamda chiqindilarni minimallashtirishga qaratilgan harakatlar bilan izohlanadi.

Jahonda oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlash va aholini sifatli don mahsulotlari bilan uzluksiz yetkazib berishga qaratilgan global tadqiqotlar kontekstida, oziq-ovqat sanoatiga aqlli ishlab chiqarish tizimlarini (Smart Manufacturing) integratsiya qilish masalalari ustuvor yoʻnalishga aylanmoqda. Bu borada, ayniqsa, don mahsulotlari tarmogʻida “Sanoat 4.0” platformasining kiber-fizik tizimlari, narsalar interneti (IoT) va sunʼiy intellekt texnologiyalari asosida ishlab chiqarish jarayonlarini intellektual boshqarish, resurs tejamkorligining innovatsion modellarini tatbiq etish hamda tarmoqning raqamli ekotizimini shakllantirishning metodologik asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Oʻzbekistonda don sanoati subyektlarining texnologik bazasini tubdan yangilash, ishlab chiqarish koʻrsatkichlarini raqamli transformatsiya qilish orqali aholini sifatli mahsulotlar bilan barqaror taʼminlash borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mamlakatimizda “2030-yilga qadar raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish” hamda qishloq xoʻjaligini raqamlashtirish strategiyalari doirasida don mahsulotlari korxonalarida avtomatlashtirilgan aqlli tizimlarni joriy etish uchun zaruriy institutsional muhit yaratilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, sohada inson omiliga bogʻliqlikni kamaytiruvchi adaptiv boshqaruv modellarini ishlab chiqish, ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida maʼlumotlar monitoringini “aqlli” algoritmlar yordamida tashkil etish hamda tarmoqning innovatsion rivojlanish mexanizmlarini raqamli texnologiyalar prizmasidan takomillashtirish boʻyicha tadqiqotlar koʻlamini kengaytirish strategik ahamiyatga egadir.

¹ <https://www.marketsandmarkets.com/Market-Reports/smart-manufacturing-market-105448439.html>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son ““Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, shuningdek, 2021-yil 10-fevraldagi PQ-4975-son “Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko‘rsatishni yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi, 2020-yil 28-apreldagi PQ-4699-son “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda sohani raqamli transformatsiya qilishga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga, xususan, don mahsulotlari tarmog‘i korxonalarida aqlli ishlab chiqarish tizimlarini joriy etish va texnologik jarayonlarni intellektual boshqarish modellarini shakllantirishga ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Aqlli ishlab chiqarish tizimlari va Sanoat 4.0 konsepsiyasining nazariy asoslarini shakllantirishda K. Schwab, M. Porter, E. Brynjolfsson, M. Hermann, T. Pentek, B. Otto, A. Kusiak, E. Lee, L. Monostori, F. Tao, L. Wang, R. Y. Zhong kabi xorijiy olimlarning ishlari muhim o‘rin egallaydi². Schwab o‘zining “To‘rtinchi sanoat inqilobi” asarida to‘rtinchi sanoat inqilobining strategik mohiyatini, Porter esa “Millatlarning raqobat ustunligi” konsepsiyasini asoslab bergan. Brynjolfsson va Saunders axborot texnologiyalarining ishlab chiqarish mahsuldorligiga ta‘sirini empirik jihatdan isbotlagan.

² Schwab, K. The Fourth Industrial Revolution / K. Schwab. – Geneva: World Economic Forum, 2016. – 184 p.; Porter, M. E. How Smart, Connected Products Are Transforming Competition / M. E. Porter, J. E. Heppelmann // Harvard Business Review. – 2014. – Vol. 92, № 11. – P. 64–88.; Brynjolfsson, E. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies / E. Brynjolfsson, A. McAfee. – New York: W. W. Norton & Company, 2014. – 306 p.; Hermann, M. Design Principles for Industrie 4.0 Scenarios [Electronic resource] / M. Hermann, T. Pentek, B. Otto // 2016 49th Hawaii International Conference on System Sciences (HICSS). – 2016. – P. 3928–3937. – Access mode: IEEE Xplore Digital Library.; Pentek, T. Technical Design Principles for Industrie 4.0 / T. Pentek. – Dortmund: Technical University of Dortmund, 2017. – 82 p.; Otto, B. Data Sovereignty is the Frontier of the Digital Economy / B. Otto // 2018 IEEE 34th International Conference on Data Engineering (ICDE). – 2018. – P. 1747–1748.; Kusiak, A. Smart manufacturing must be digitally resilient / A. Kusiak // Nature. – 2017. – Vol. 544. – P. 23–25.; Lee, E. A. Cyber Physical Systems: Design Challenges / E. A. Lee // 2008 11th IEEE International Symposium on Object and Component-Oriented Real-Time Distributed Computing (ISORC). – 2008. – P. 363–369.; Monostori, L. Cyber-physical production systems: Roots, expectations and R&D challenges / L. Monostori // Procedia CIRP. – 2014. – Vol. 17. – P. 9–13.; Tao, F. Digital Twin-driven smart manufacturing: Framework, current status and future perspectives / F. Tao, M. Zhang, A. Y. C. Nee // IEEE Transactions on Industrial Informatics. – 2019. – Vol. 15, № 6. – P. 3461–3471.; Wang, L. Cloud-based cyber-physical systems in manufacturing/ L. Wang, M. Törngren, M. Onori // Engineering. – 2015. – Vol. 1, № 1. – P. 62–74.; Zhong, R. Y. Intelligent Manufacturing in the Context of Industry 4.0: A Review / R. Y. Zhong, X. Xu, E. Klotz, S. T. Newman // Engineering. – 2017. – Vol. 3, № 5. – P. 616–630.

IoT, IIoT, kiber-fizik tizimlar va raqamli egizak texnologiyalari sohasida L.D.Xu³, V.He va S.Li⁴, F.Tao⁵, M.Grieves va J. Vickers⁶, H.Boyes va boshqalarning fundamental tadqiqotlari mavjud⁷. Investitsiyalarni baholash asoslari sohasida P.Osterrieder, J.M.Müller, Brettel va ularning hammualliflari ko'p omilli yondashuvlarni taklif etgan⁸. McKinsey Global Institute va Deloitte kompaniyalari tomonidan o'tkazilgan amaliy tadqiqotlar global darajada "lighthouse" zavodlar tajribasini umumlashtirib, aqlli ishlab chiqarishning miqdoriy samaralarini isbotlagan.

Sanoat 4.0 konsepsiyasini MDH davlatlari iqtisodiyoti xususiyatlaridan kelib chiqqan holda nazariy boyitish, texnologik ukladlar almashinuvi sharoitida raqamli ekotizimlarni shakllantirish, korxonalarni boshqarishning tizimli modellarini takomillashtirish hamda "aqlli" ishlab chiqarish va raqamli egizaklar texnologiyalarining iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish masalalari bo'yicha bir qator fundamental tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ular qatoriga S.Yu. Glazyev, A.I. Borovkov, A.V. Babkin, G.B. Kleyner, V.P. Kupriyanovskiy, V.N. Shimov va A.A. Akayevlar muallifligidagi ilmiy ishlar kiradi⁹.

So'nggi yillarda qator tadqiqotlar O'zbekiston don mahsulotlari korxonalari barqarorligi va samaradorligini optimallashtirishga, don mahsulotlari korxonalarida xarajatlarni qisqartirish orqali samaradorlikni ta'minlashga, moliyaviy natijalarini boshqarish tizimini takomillashtirishga, tarmoqdagi iqtisodiy munosabatlar hamda rivojlanish tendensiyalarini tadqiq etishga bag'ishlangan bo'lib, ular qatoriga D.A. Kurbanova, Sh.B. Donayev, B.K. Muftaydinov, J.R. Baxriddinov, I.S. Musoxonzoda, U.M. Kadirov, I.N. Qo'ziyev, M.S. Yusupovlar¹⁰ muallifligidagi

³ Xu, L. D. Internet of Things in Industries: A Survey [Text] / L. D. Xu, W. He, S. Li // IEEE Transactions on Industrial Informatics. – 2014. – Vol. 10, № 4. – P. 2233–2243.

⁴ Li, S. The internet of things: a survey / S. Li, L. D. Xu, S. Zhao // Information Systems Frontiers. – 2015. – Vol. 17. – P. 243–259.

⁵ Tao, F. Digital twins and cyber-physical systems toward smart manufacturing and industry 4.0: Connection and happiness [Text] / F. Tao, Q. Qi, L. Wang, A. Y. C. Nee // Engineering. – 2019. – Vol. 5, № 1. – P. 5–41.

⁶ Grieves, M. Digital Twin: Mitigating Unpredictable, Undesirable Emergent Behavior in Complex Systems [Text] / M. Grieves, J. Vickers // Transdisciplinary Perspectives on Complex Systems. – Springer, Cham, 2017. – P. 85–113.

⁷ Boyes, H. The industrial internet of things (IIoT): An analysis framework [Text] / H. Boyes, B. Isbell, A. Lukyanov // Computers in Industry. – 2018. – Vol. 101. – P. 1–12.

⁸ Osterrieder, P. Smart factory dynamics: A review of key concepts and future research directions [Text] / P. Osterrieder, L. Budermann, M. Friedli // Computers in Industry. – 2020. – Vol. 123. – P. 103302.; J. M. Müller, D. Kiel, K. I. Voigt // Journal of Manufacturing Technology Management. – 2018. – Vol. 29, № 2. – P. 226–260.; M. Brettel, N. Friederichsen, M. Keller, M. Rosenberg // International Journal of Mechanical, Aerospace, Industrial, Mechatronic and Manufacturing Engineering. – 2014. – Vol. 8, № 1. – P. 37–44.

⁹ С.Ю. Глазьев. Великая цифровая революция: вызовы и перспективы для экономики XXI века. Монография. Москва-2017. 550 с.; А.И. Боровков. Новая парадигма цифрового проектирования и моделирования глобально конкурентоспособной продукции нового поколения. Научный доклад. Санкт-Петербург-2018. 135 с.; А.В. Бабкин. Формирование цифровой экономики: теория и практика. Монография. Санкт-Петербург-2017. 428 с.; Г.Б. Клейнер. Экономика экосистем: шаг в будущее. Научные основы и системная парадигма. Москва-2019. 112 с.; В.П. Куприяновский. Индустрия 4.0 на базе широкополосных сетей связи и Интернета Вещей. Теоретическое исследование. Москва-2016. 210 с.; В.Н. Шимов. Развитие экономики Беларуси в условиях глобализации и цифровизации. Научное издание. Минск-2019. 240 с.; А.А. Акаев. Технологическое развитие и мировая экономика. Методологическое исследование. Москва-2014. 320 с.

¹⁰ D.A. Kurbanova. Oziq-ovqat sanoati don mahsulotlari tarmog'i korxonalari barqarorligi va optimallashtirishning tashkiliy-iqtisodiy metodologiyasini takomillashtirish. Iqt.fan.dokt.dissertatsiyasi. Toshkent-2025. 223 bet.; Sh.B. Donayev. Sanoat korxonalarida xarajatlarni qisqartirish asosida samaradorlikni oshirish. Iqt.fan.falsafa.dokt.dissertatsiyasi. Toshkent - 2024. 152 bet.; B.K. Muftaydinov. Korxonalar moliyaviy barqarorligini baholash va tahlilini takomillashtirish yo'nalishlari. Iqt.fan.falsafa.dokt. dissertatsiyasi avtoref. Farg'ona - 2024., 57

ilmiy ishlar taalluqlidir. Biroq, don mahsulotlari tarmog'ida aqlli ishlab chiqarish tizimlarini joriy etishning kompleks ilmiy-nazariy asoslari, resurslar samaradorligini baholashning tarmoqqa moslashtirilgan modellari va raqamli transformatsiyani doimiy boshqarishning adaptiv mexanizmlari mavjud ilmiy adabiyotlarda yetarli darajada yoritilmaganligi mazkur mavzuni tadqiq etish zaruratini keltirib chiqaradi.

Dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat texnika universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq № IL-432105706 "Raqamli transformatsiya sharoitida texnika universitetini barqaror rivojlantirish modelini ishlab chiqish" mavzusidagi ilmiy-amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sanoat korxonalarida aqlli ishlab chiqarish tizimlarini joriy etishni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sanoat korxonalarida aqlli ishlab chiqarish tizimlarining ilmiy-konseptual asoslarini tahlil qilish;

aqlli ishlab chiqarish tizimlarining ko'p qatlamli tashkiliy tuzilmasi, tarkibiy qismlari va o'zaro integratsiya mexanizmlarini tizimli yoritish;

aqlli ishlab chiqarish tizimlarini joriy etishning xalqaro tajribasi (Germaniya, AQSh, Xitoy, Yaponiya va boshqalar) hamda muvaffaqiyatli amalga oshirishning omillarini o'rganish;

O'zbekiston Respublikasi don mahsulotlari sohasidagi aqlli texnologiyalarning joriy holatini miqdoriy va sifat jihatidan baholash;

tadqiqot obyekti faoliyatini iqtisodiy, ishlab chiqarish va texnologik transformatsiya nuqtayi nazaridan tahlil qilish;

aqlli ishlab chiqarish tizimlarini joriy etishdagi tashkiliy, texnologik va iqtisodiy muammolarni tizimlashtirish hamda ularning o'zaro ta'sir mexanizmlarini ochib berish;

don mahsulotlari korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirishda raqamli transformatsiya jarayonlarini takomillashtirish

don mahsulotlari korxonalarida aqlli ishlab chiqarish tizimlarini joriy etishning innovatsion strategik yo'nalishlarini aniqlashni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilash;

O'zbekistonda aqlli ishlab chiqarish tizimlarini tatbiq etishni jadallashtirish yo'nalishlari bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida don mahsulotlari korxonasi "DUNYO-M" AJ faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib don mahsulotlari tarmog'i korxonalari faoliyatida aqlli ishlab chiqarish tizimlarini joriy etishni takomillashtirishda yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

bet.; J.R. Baxriddinov. Tovar va xizmatlar marketingi tizimida narxlarni shakllantirish va boshqaruv hisobini takomillashtirish. Iqt.fan.falsafa.dokt.dissertatsiyasi avtoref. Toshkent-2022, 61 bet.; I.S. Musoxonzoda. Korxonalar moliyaviy natijalarini takomillashtirish. Iqt.fan.falsafa.dokt. dissertatsiyasi avtoref. Toshkent – 2021, 61 bet.; U.M. Kadirov. I.N.Qo'ziyev. Auditorlik hisobotini tuzish va umumlashtirish metodologiyasini takomillashtirish. Iqt.fan.dokt.dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2017. 70 bet.; M.S. Yusupov. Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Iqt.fan.fals.dokt. dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent-2018., 53 bet.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, tanlama kuzatish, statistik tahlil, ko‘p omilli ekonometrik tahlil, Monte-Karlo simulatsiyasi, ekspert baholash, prognozlash, statistik tahlil, PDCA boshqaruv sikli, ex-ante va ex-post baholash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

don mahsulotlari korxonalarini uchun aqlli ishlab chiqarish tizimlarini joriy etishda kengaytirilgan investitsiya samaradorligi indeksi (KISI)ni qo‘llash orqali investitsiyalar samaradorligini ko‘p omilli, dinamik va nomoddiy ta’sirlarni integratsiyalashtirilgan holda baholashga mo‘ljallangan SMART-INVEST modeli takomillashtirilgan;

sanoat korxonalarining ishlab chiqarish va saqlash jarayonlari samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi, o‘zida beshta bosqichni mujassamlashtirgan ADAPT blok-sxemasi hamda korxona faoliyati natijadorligini kompleks miqdoriy baholash imkonini beruvchi DPI (digital performance index) indeksi takomillashtirilgan;

don mahsulotlari korxonalarida texnologiyalar, resurslar, adaptatsiya salohiyati va iqtisodiy natijadorlik ko‘rsatkichlariga asoslangan hamda innovatsion strategik rivojlantirishning to‘liq siklini qamrab oluvchi to‘rt o‘lchamli konvergent modeli asoslab berilgan;

don mahsulotlari korxonalarida raqamli infratuzilma ko‘rsatkichlari (ma’lumotlar bazasi hajmi, avtomatlashtirish darajasi, sensorlar soni) va moliyaviy natijalar (sof foyda) o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalovchi ko‘p omilli ekonometrik (regressiya) model ishlab chiqilgan hamda korxonaning 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan prognoz ko‘rsatkichlari asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

don mahsulotlari korxonalarida investitsiya loyihalarini tanlab olish va ularning samaradorligini baholashda nomoddiy aktivlar hamda dinamik o‘zgarishlarni hisobga olish imkonini beruvchi “SMART-INVEST” modelini qo‘llash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

ishlab chiqarish jarayonlarining raqamli tayyorgarlik darajasini aniqlash hamda operatsion samaradorlikni DPI (digital performance index) indeksi orqali monitoring qilish imkonini beruvchi metodik ko‘rsatmalar va dasturiy algoritmlar taklif etilgan;

korxonalarni strategik rivojlantirishning to‘rt o‘lchamli konvergent modeli asosida raqamli transformatsiyaning to‘liq siklini (diagnostikadan monitoringgacha) boshqarish va resurslarni optimallashtirish bo‘yicha amaliy yechimlar paketi shakllantirilgan;

don mahsulotlari tarmog‘ida raqamli infratuzilmani modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish darajasini oshirish va buning natijasida mahsulot tannarxini pasaytirish hamda sof foydani ko‘paytirishga qaratilgan amaliy takliflar asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlari, egov.uz platformasida e‘lon qilingan statistik bazalar, “Dunyo-M” AJning 2015–2024-yillar davridagi moliyaviy hisobotlari va ichki ishlab chiqarish statistikasi, shuningdek, McKinsey, Deloitte, Capgemini, WEF, Bruegel kabi xalqaro tashkilotlarning keng

e'tirof etilgan tadqiqotlariga tayanadi. Ishda qo'llangan iqtisodiy-matematik usullar (ko'p omilli regressiya, Monte-Karlo simulatsiyasi) standart uslubiy talablarga mos bo'lib, keltirilgan xulosa, takliflarning mutasaddi idoralar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati dissertatsiyada taklif etilgan SMART-INVEST modeli, ADAPT blok-sxemasi va to'rt o'lchamli konvergent model rivojlanayotgan iqtisodiyot sharoitidagi don mahsulotlari korxonalari uchun moslashtirilgan yangi uslubiy instrumentlar sifatida iqtisodiyot, sanoat menejmenti va raqamli transformatsiya nazariyasiga salmoqli hissasida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan modellar va tavsiyalar O'zbekiston don mahsulotlari korxonalari, agrosanoat klasterlari va davlat tomonidan agrosanoatni raqamlashtirish bo'yicha dasturlarni ishlab chiquvchi idoralar tomonidan amaliyotda qo'llanilish imkoniyatlari bilan izohlanadi. Shuningdek, natijalar "Sanoat iqtisodiyoti", "Raqamli iqtisodiyot", "Innovatsion menejment" fanlaridan dars beruvchi o'quv muassasalari uchun o'quv-uslubiy materiallar sifatida ham xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sanoat korxonalarida aqlli ishlab chiqarish tizimlarini joriy etishni takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

don mahsulotlari korxonalari uchun aqlli ishlab chiqarish tizimlarini joriy etishda kengaytirilgan investitsiya samaradorligi indeksi (KISI)ni qo'llash orqali investitsiyalar samaradorligini ko'p omilli, dinamik va nomoddiy ta'sirlarni integratsiyalashtirilgan holda baholashga mo'ljallangan SMART-INVEST modeli taklifi "DUNYO-M" AJ faoliyatiga joriy etilgan ("DUNYO-M" AJ 2026-yil 04-iyundagi 195-sonli ma'lumotnomasi). Taklif korxonada 299,9 mln so'mlik iqtisodiy tejamga erishishga muayyan darajada xizmat qilgan;

sanoat korxonalarining ishlab chiqarish va saqlash jarayonlari samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi, o'zida beshta bosqichni mujassamlashtirgan ADAPT blok-sxemasi hamda korxona faoliyati natijadorligini kompleks miqdoriy baholash imkonini beruvchi DPI (digital performance index) indeksi takomillashtirilgan. Taklif etilgan ushbu tizimning joriy etilishi ("DUNYO-M" AJ 2026-yil 04-iyundagi 195-sonli ma'lumotnomasi) korxonada energiya sarfini 12 foizga qisqartirish va boshqaruv samaradorligini oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

don mahsulotlari korxonalarida texnologiyalar, resurslar, adaptatsiya salohiyati va iqtisodiy natijadorlik ko'rsatkichlariga asoslangan hamda innovatsion strategik rivojlantirishning to'liq siklini qamrab oluvchi to'rt o'lchamli konvergent modeli amaliyotga joriy etilgan ("DUNYO-M" AJ 2026-yil 04-iyundagi 195-sonli ma'lumotnomasi). Taklif korxonada 300 mln so'mlik iqtisodiy tejamga erishishga muayyan darajada xizmat qilgan;

don mahsulotlari korxonalarida raqamli infratuzilma ko'rsatkichlari (ma'lumotlar bazasi hajmi, avtomatlashtirish darajasi, sensorlar soni) va moliyaviy natijalar (sof foyda) o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalovchi ko'p omilli ekonometrik

(regressiya) model ishlab chiqilgan hamda korxonaning 2026–2030-yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari asoslangan. Taklif istiqbol maqsadlarga erishishda korxonaning investitsion imkoniyatlaridan samarali foydalanishga muayyan darajada xizmat qilgan ("DUNYO-M" AJ 2026-yil 04-iyundagi 195-sonli ma'lumotnomasi).

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 1 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 5 ta maqola, jumladan, 3 ta respublika hamda 2 tasi nufuzli xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, uning umumiy hajmi 150 sahifani tashkil etadi.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti hamda predmeti tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Sanoat korxonalarida aqlli ishlab chiqarish tizimlarining ilmiy-nazariy asoslari va xalqaro tajribasi**" deb nomlangan bo'lib, unda aqlli ishlab chiqarish tizimlari (AICHT) shakllanishining tarixiy-iqtisodiy bosqichlari, ularning ko'p qatlamli arxitekturasi hamda global miqyosdagi yetakchi mamlakatlar tajribasini tadqiq etishga bag'ishlangan. Tadqiqotda Klaus Shvab, Maykl Porter va Erik Brinolfsson kabi olimlarning nazariy qarashlariga tayanib, AICHT shunchaki texnologik yangilik emas, balki to'rtinchi sanoat inqilobining (Sanoat 4.0) mantiqiy yakuni ekanligi asoslab berilgan.

Sanoat inqiloblarining evolyutsion tahlili shuni ko'rsatadiki, bug' dvigatellaridan boshlangan sanoat taraqqiyoti bugungi kunda sun'iy intellekt va kiber-fizik tizimlar (CPS) uyg'unligiga yetib keldi. Agar birinchi va ikkinchi inqiloblar mexanizatsiyalash va ommaviy ishlab chiqarishni ta'minlagan bo'lsa, uchinchi inqilob avtomatlashtirishni, to'rtinchisi esa aqlli, moslashuvchan va avtonom tizimlarni shakllantirdi.

Mazkur tizimlar murakkab ko'p qatlamli tizim asosida qurilgan bo'lib, ularning har bir bo'g'ini yagona maqsad – ishlab chiqarish jarayonlarini real vaqt rejimida optimallashtirishga xizmat qiladi. AICHT ning arxitekturasi fizik qatlam (sensorlar, robotlar), ulanish qatlami (5G, IoT tarmoqlari) va intellektual tahlil qatlamidan (Big Data, SI) iborat bo'lib, bu tuzilma tizimning barqarorligi hamda masshtablanuvchanligini kafolatlaydi.



1-rasm. Aqlli ishlab chiqarish tizimlarining tashkiliy tuzilmasi va funksional vazifalari¹¹

Aqlli ishlab chiqarish tizimlarining kuchi biror tarkibiy qismning alohida ishlashida emas, balki ularning sinergik integratsiyasida namoyon bo‘ladi. IoT sensorlari orqali yig‘ilgan real vaqt rejimidagi ma’lumotlar sun’iy intellekt qatlamida tahlil qilinadi va “raqamli egizaklar” (Digital Twin) orqali ishlab chiqarish jarayonlari virtual modellashiriladi. Bu esa korxonaga xatolarni fizik bosqichga o‘tishdan oldin aniqlash va resurslarni optimal sarflash imkonini beradi. Tizimning ushbu texnologik imkoniyatlari bevosita xalqaro raqobatbardoshlik omiliga aylanadi (1-rasm).

¹¹ Manbalar asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

Aynan shu texnologik integratsiya zarurati mamlakatlarni o‘z sanoat siyosatini tubdan qayta ko‘rib chiqishga undamoqda. AICHTning yuqoridagi funksional imkoniyatlarini amaliyotda to‘liq ochib berish uchun global miqyosda turli strategik yondashuvlar shakllangan. Xususan, Germaniyaning “Industrie 4.0” tashabbusi standartlashtirish va o‘zaro muvofiqlik (interoperability) orqali yirik va o‘rta sanoatni birlashtirishga qaratilgan bo‘lsa, Xitoyning “Made in China 2025” dasturi keng qamrovli avtomatlashtirish va SI integratsiyasiga ustuvorlik beradi. AQSh modeli esa ko‘proq venchur kapital va innovatsion ekotizimlar orqali texnologik yechimlarni bozorga tezkor yetkazishni ko‘zda tutadi.

Yaponiya tajribasi, xususan, “Society 5.0” konsepsiyasi, ushbu tizimlarda inson omilini “aqli simbioz” shaklida saqlab qolishga e‘tibor qaratishi bilan ajralib turadi. Xalqaro tajribalardagi bu xilma-xillik shuni ko‘rsatadiki, aqli ishlab chiqarish tizimlariga o‘tish – bu faqatgina jihozlarni yangilash emas, balki davlat darajasidagi infratuzilmaviy va institutsional o‘zgarishlarni talab qiladigan murakkab iqtisodiy jarayondir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Don mahsulotlari tarmog‘i korxonalarida aqli texnologiyalarni joriy etishning joriy holati va muammolari tahlili”** deb atalib, u O‘zbekiston agrosanoat majmuasining strategik yo‘nalishi bo‘lgan don mahsulotlari tarmog‘ida aqli ishlab chiqarish tizimlarini (AICHT) joriy etishning amaliy holatini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqot doirasida mamlakatdagi don ishlab chiqarish salohiyati, xususan, 2024-yilgi 8,8 mln tonnalik hosil hajmi tahlil qilingan bo‘lib, tarmoqning innovatsion transformatsiyasi zarurati asoslab berilgan.

Tadqiqot obyekti bo‘lgan “DUNYO-M” AJning iqtisodiy-moliyaviy ko‘rsatkichlari tahlili quyidagi jadvalda berilgan (1-jadval).

1-jadval


“DUNYO-M” AJning asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari dinamikasi,
ming so‘m¹²

Yillar	Yillik aylanma	Sof foyda	Ishlab chiqarish rentabelligi
2015.	106738452	6752244	0.063
2016.	122288585	5386049	0.044
2017.	161014871	9375790	0.058
2018.	212935768	23793972	0.112
2019.	337646696	40851529	0.121
2020.	395703107	42426711	0.107
2021.	303216133	15988953	0.053
2022.	472189955	21174694	0.045
2023.	187491841	472321	0.003
2024.	238434136	1700768	0.007

2015–2020-yillarda “Dunyo-M” AJ barqaror o‘sishga erishib, rentabellik koeffitsiyenti 0,121 gacha va sof foydasi 42,4 mlrd so‘mgacha yetgan edi. Biroq, pandemiya oqibatlari va bozordagi raqobatning kuchayishi sababli 2021-yildan boshlab tushum va foyda pasaydi. Ayniqsa, 2022–2023-yillarda tushumning yuqori

¹² “Dunyo-M” AJ ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tizimlashtirildi.

bo‘lishiga qaramay, rentabellik koeffitsiyenti 0,003 gacha tushib ketishi, xarajatlarning (xomashyo, energiya, logistika) daromad o‘lishidan tezroq oshganini ko‘rsatadi. 2024-yildagi dastlabki tiklanish belgilariga qaramay, korxona avvalgi rentabellik darajasiga qaytishi uchun texnologik modernizatsiya va xarajatlarni optimallashtirishni ko‘zda tutuvchi fundamental restrukturizatsiyaga muhtoj (1-jadval).



2-rasm. Dunyo-M” AJning operatsion ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari dinamikasi¹³

2013–2021-yillarda “Dunyo-M” AJ ishlab chiqarish hajmi 70 000 tonnadan yuqori va liniya yuklanishi 62,8 %gacha bo‘lgan barqaror faoliyat ko‘rsatgan. Biroq, 2022-yildan boshlab keskin pasayish kuzatilib, ishlab chiqarish hajmi 8 barobar qisqardi (55,7 ming tonnadan 7,2 ming tonnagacha). Liniya yuklanishining 5,7% gacha tushishi korxona quvvatlari deyarli to‘xtab qolganidan dalolat beradi. Bu holat o‘zgarish xarajatlarning tannarxdagi ulushini keskin oshirib, sof foydaning nollashishiga olib keldi. Uskunalar samaradorligining bunday regressiyasi xomashyo ta’minotidagi uzilishlar, texnik parkning eskirishi hamda bozor konjunkturasining o‘zgarishi bilan izohlanadi (2-rasm).

2013–2022-yillarda korxona xarajatlari barqaror o‘lib, 2022-yilda maksimal darajaga (410,1 mlrd so‘m) yetdi. Xomashyo xarajatlari ustunlik qilsa-da, energiya va mehnat sarfining keskin oshishi (masalan, energiya xarajatlari 30,9 mlrd so‘mgacha) mahsulot tannarxiga bosimni kuchaytirdi. 2022-yilda ma’muriy xarajatlarning (5,7 mlrd so‘m) 2024-yilga kelib qisqarishi (1,5 mlrd so‘m) inqirozli davrda “tejamkorlik rejimi”ga o‘tilganidan dalolat beradi. Asosiy vositalar va amortizatsiya tahlili texnologik parkning eskirganligi hamda energiya sarfi mahsulot birligiga nisbatan samarasiz taqsimlanayotganini ko‘rsatadi. Bu holat moliyaviy barqarorlikni tiklash uchun resurs tejovchi “aqlli” texnologiyalarni joriy etish zaruratini asoslaydi (2-jadval).

¹³ “Dunyo-M” AJ ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

2-jadval


“Dunyo-M” AJning asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari dinamikasi¹⁴

Yillar	Asosiy vositalar qiymati	Xarajatlar tarkibi					
		Amortizatsiya ajratmasi	Energiya xarajatlari	Mehnat xarajatlari	Ma'muriy (boshqaruv) xarajatlari	Xomashyo xarajatlari	Operatsion xarajatlar
2013.	18093638	976497	1471012.77	1697555.01	1360896.55	80163228.68	8065002.82
2014.	20394061	1002693	1658037.16	1913381.96	1533920.78	90355172.11	9090386.33
2015.	23772153	884496	1932676.04	2230316.39	1788000.90	105321690.26	10596126.72
2016.	24697291	794592	2007889.76	2317113.35	1857584.32	109420481.73	11008494.90
2017.	36435174	985405	2962179.65	3418367.95	2740438.53	161424760.75	16240502.94
2018.	45408737	1504026	3691730.32	4260272.54	3415376.92	201181816.95	20240351.44
2019.	56634750	1584620	4604405.18	5313503.22	4259731.29	250918273.89	25244200.12
2020.	51213692	3307589	4467134.00	18963170.00	2936158.00	303868957.00	17790972.00
2021.	53385129	2907841	4459128.00	24041594.00	4015314.00	236520942.00	23795724.00
2022.	45467934	2384280	3696953.00	30989285.00	5773909.00	410138589.00	31333901.00
2023.	46577633	3907391	1603802.00	4369939.00	3724243.00	140719613.00	8300577.00
2024.	44869118	2912536	2090397.00	10014360.00	1554786.00	216431180.00	6662718.00

¹⁴ “Dunyo-M” AJ ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, garchi tarmoq iqtisodiyotda muhim o'rin tutsa-da, texnologik jihatdan modernizatsiya sur'atlari global tendensiyalardan ortda qolmoqda. "Dunyo-M" AJ misolida o'tkazilgan chuqur tadqiqotlar shuni namoyon qildiki, yarim asrlik tarixga ega korxonalarda uskunalar parkining eskirganligi va inson omiliga yuqori darajada bog'liqlik energiya samaradorligini (118 kVt/t) va tayyor mahsulot chiqish koeffitsiyentini (75 %) kritik darajada ushlab turibdi.

Ushbu muammolarni bartaraf etishning asosiy yechimi sifatida "Smart-Invest" modeli ishlab chiqildi. Ushbu model ishlab chiqarish liniyalarini sensorli nazorat qilish va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini integratsiya qilish orqali operatsion inqirozni bartaraf etishni ko'zda tutadi.



3-rasm. SMART-INVEST modelining iyerarxik ko'rinishi¹⁵

¹⁵ Muallif tomonidan takomillashtirilgan.

Model markaziy ko'rsatkichi – Kengaytirilgan investitsiya samaradorligi indeksi (KISI) quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$KISI = \alpha \cdot \Delta MS + \beta \cdot \Delta OS + \gamma \cdot \Delta RK + \delta \cdot \Delta SP$$

bunda: $0 < \alpha, \beta, \gamma, \delta < 1$; $\alpha + \beta + \gamma + \delta = 1$

3-jadval

SMART-INVEST modeli tarkibiy ko'rsatkichlari va ularning hisoblash usullari¹⁶

Ko'rsatkich	To'liq nomi	Hisoblash formulasi	Don sanoatiga xos mezonlar
ΔMS	Moliyaviy samaradorlik o'zgarishi	$\Delta MS = (UUS_{smart} - UUS_{asos}) / I_0$	Bug'doy narxi $\pm 20\%$ ssenariyda NPV farqi; amortizatsiya davrida energiya tejamlorligi ulushi
ΔOS	Operatsion samaradorlik o'zgarishi	$\Delta OS = (UUS_{smart} - UUS_{asos}) / UUS_{base}$	Liniya yuklanganligi o'zgarishi; mahsulot tannarxi pasayishi; defekt ulushi kamayishi
ΔRK	Risk kamayishi ko'rsatkichi	$\Delta RK = \frac{\sum(p_i \cdot L_i)_{asos} - \sum(p_i \cdot L_i)_{smart}}{\sum(p_i \cdot L_i)_{asos}}$	Xomashyo zanjiri uzilish ehtimoli; iqlim omili riski; bozor narxi risk qiymatlari
ΔSP	Strategik pozitsiya kuchayishi	$\Delta SP = \frac{(MS_{smart} - MS_{asos})}{MS_{asos}} \cdot 100$	Tarmoqdagi bozor ulushi o'zgarishi; sifat reytingi; klaster integratsiya darajasi

Og'irlik koeffitsiyentlari ($\alpha, \beta, \gamma, \delta$) korxonaning rivojlanish bosqichi va strategik ustuvorliklariga qarab belgilanadi. Don mahsulotlari sohasi uchun muallif tomonidan empirik tahlil asosida tavsiya etiluvchi boshlang'ich qiymatlar: $\alpha = 0,35$; $\beta = 0,30$; $\gamma = 0,20$; $\delta = 0,15$. Ushbu nisbatlar sohaviy ekspertlar bilan kelishilgan holda moslashtirilishi mumkin.

Dissertatsiyaning “Don mahsulotlari korxonalari faoliyatini raqamli transformatsiya asosida rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari” deb nomlangan uchinchi bobi don mahsulotlari korxonalarida raqamli transformatsiya jarayonlarini joriy etish, innovatsion strategiyalarni ishlab chiqish va ularning iqtisodiy samaradorligini ekonometrik modellash tirish masalalariga bag'ishlangan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bugungi oziq-ovqat xavfsizligi va iqlimiy tebranishlar sharoitida raqamli transformatsiya – bu tanlov emas, balki tarmoq barqarorligini ta'minlashning yagona strategik yo'lidir.

Don mahsulotlari korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun faqatgina texnologik uskunalar emas, balki ularni boshqarish tizimini (ADAPT modeli) integratsiya qilish zarur. “Dunyo-M” AJ misolida o'tkazilgan tahlillar shuni

¹⁶ Muallif tomonidan takomillashtirilgan.

ko'rsatkichi, IoT infratuzilmasiga kiritilgan 150-200 mln so'mlik investitsiya, yiliga 437,3 mln so'm tejamkorlik hisobiga 5-6 oy ichida o'zini to'liq qoplaydi.

Ushbu jarayonda taklif etilgan ADAPT blok-sxemasini va unga asoslangan DPI (Digital Performance Index) indeksi ishlab chiqarish hajmi va resurs tejamkorligini yagona kiber-fizik tizimda birlashtiradi.

4-jadval

ADAPT blok-sxemasining funksional bloklari tizimi¹⁷

Blok raqami	Blok nomi	Asosiy vazifasi	Asosiy ko'rsatkich
1-blok	DARS (Raqamli aktivlik va resurs skaneri)	Real vaqt rejimida ishlab chiqarish jarayonlarini monitoring qilish: uskunalar yuklanganlik darajasi, energiya sarfi, mahsulot sifati	DLI (Digital Load Index) – uskunalar yuklanganlik ko'rsatkichi
2-blok	OPIS (Operatsion samaradorlik prognozlash va integratsiya tizimi)	Monitoring ma'lumotlari asosida operatsion samaradorlikni prognozlash, nosozliklarni oldindan aniqlash (preventive maintenance)	OEI (Operatsion samaradorlik indeksi) = mahsulot chiqishi × sifat ko'effitsiyenti / rejalashtirilgan quvvat
3-blok	ARAM (Adaptiv reaksiya va qarorlar boshqaruvi)	Prognoz natijalariga asoslanib boshqaruv qarorlarini avtomatik shakllantirib taklif qilish, asoslab berish	ARI (Adaptive Response Index) – moslashuv tezligi va aniqligi ko'rsatkichi
4-blok	KEIT (Korxona iqtisodiy-texnologik transformatsiya tahlili)	Har chorakda SMART-INVEST hisob-kitoblari bilan solishtirma (ex-ante/ex-post tahlil), strategik tuzatishlar kiritish	DPI (Raqamli samaradorlik indeksi) — SMART-INVEST prognozi va haqiqiy natijalardagi tafovutlar

ADAPT blok-sxemasining asosiy qismini DPI (Digital Performance Index – Raqamli samaradorlik indeksi) tashkil etadi. DPI modeli SMART-INVESTning prognoz ko'rsatkichlari bilan haqiqiy ishlab chiqarish natijalarini dinamik taqqoslab, boshqaruv qarorlarini asoslab berishning integratsiyalashgan o'lchovi hisoblanadi. DPI quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$DPI = (Q_f / Q_p) \times (E_p / E_f) \times (S_f / S_p) \times ARI \quad (1)$$

bunda:

Q_f – haqiqiy mahsulot chiqishi (tonna/sutka);

Q_p – rejalashtirilgan mahsulot chiqishi (SMART-INVEST prognozi asosida);

E_p – energiya sarfining prognoz me'yori (kWh/t);

E_f – haqiqiy energiya sarfi (kWh/t);


¹⁷ Muallif tomonidan takomillashtirilgan.

S_f – haqiqiy mahsulot sifat ko‘rsatkichi;

S_p – rejalashtirilgan sifat standarti (ISO 21401 yoki milliy standart asosida);

ARI – moslashtirilgan reaksiya indeksi: boshqaruv qarorlarini qabul qilish tezligi va to‘g‘riligini o‘lchovchi koeffitsiyent, 0 dan 1 gacha qiymat qabul qiladi.

DPI formulasining uch asosiy tarkibiy qismi don mahsulotlari korxonasining raqamli samaradorligining uch o‘lchovini qamrab oladi: ishlab chiqarish hajmi samaradorligi (Q_f/Q_p), resurs tejamkorligi (E_p/E_f) va mahsulot sifati barqarorligi (S_f/S_p). ARI koeffitsiyenti esa modeli boshqaruv tomonini – moslashuvchanlik va reaktivlikni – ko‘rsatkichga qo‘shib, uni oddiy texnik monitoringdan strategik boshqaruv instrumentiga aylantiradi.



4-rasm. ADAPT blok-sxemasining tarkibiy-funksional sxemasi¹⁸

ADAPT blok-sxemasi korxonaning texnologik va operatsion faoliyatini raqamli monitoring qilish imkonini bergan bo‘lsa-da, ushbu jarayonlarning moliyaviy natijadorligini miqdoriy jihatdan aniqlash va prognoz qilish uchun yanada chuqurroq ilmiy tadqiqotlar talab etiladi. Aynan shu nuqtada, korxonaning real vaqt rejimidagi ma’lumotlar ekonometrik tahlilning asosiy manbasiga aylanadi. Bu ikki yondashuvni birlashtirish orqali biz nafaqat “aqlli” tizimlarning joriy etilishini, balki ularning sof foyda va rentabellik kabi moliyaviy ko‘rsatkichlarga ta’sirini aniq matematik korrelyatsiya asosida baholash imkoniga ega bo‘lamiz.

¹⁸ Muallif tomonidan takomillashtirilgan.

Zamonaviy sanoat korxonalarining raqamli transformatsiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, aqlli ishlab chiqarish tizimlarini (AICHT) joriy etish faqat texnologik yangilanish bilan cheklanib qolmay, balki keng qamrovli innovatsion strategiyalarning shakllantirilishini taqozo etadi. Dissertatsiyaning oldingi boblarida "Dunyo-M" AJ faoliyatida aniqlangan tashkiliy, texnologik va iqtisodiy muammolar majmuasi ushbu korxonada innovatsion strategiyalar ishlab chiqilishining obyektiv zaruriyatini ko'rsatdi.

Xalqaro ilmiy adabiyotlar tahlili asosida AICHT joriy etishning beshta asosiy innovatsion yo'nalishi aniqlandi: oldindan bashorat qiluvchi texnik xizmat ko'rsatish (predictive maintenance), jarayonlarni real vaqt rejimida optimallashtirish, ta'minot zanjirlari sinxronizatsiyasi, sifatni avtomatik nazorat qilish va qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash tizimlari. Li va boshqalar tomonidan TOE doirasida o'tkazilgan tadqiqotda esa 7 ta ustuvor innovatsion yo'l ajratilgan: texnologiyaga asoslangan, bozorga yo'naltirilgan, resursga asoslangan, hamkorlikka asoslangan, bosqichma-bosqich, platforma innovatsiyasi va barqarorlikka asoslangan strategiyalar.

5-jadval

Aqlli ishlab chiqarish tizimlarini joriy etishning innovatsion strategiyalarini taqqoslash¹⁹

Strategiya turi	Asosiy xususiyatlari	Qo'llanilish sharoiti	Kutilayotgan natija
Texnologiyaga asoslangan	Keng qamrovli raqamli transformatsiya, to'liq avtomatizatsiya	Yuqori moliyaviy imkoniyat, tayyorgarlik	Samaradorlik 25–35 % o'sishi
Bosqichma-bosqich	Ketma-ket, risk boshqarilgan joriy etish	Cheklangan resurslar, yuqori risk muhiti	Xarajatlarni 15–20 % kamaytirish
Platforma innovatsiyasi	Yagona raqamli platforma, barcha jarayonlar integratsiyasi	Katta hajmdagi ma'lumotlar, ko'p seksiyali tuzilma	Operatsion xarajatlar 20 % qisqarishi
Hamkorlikka asoslangan	Texnologiya transferi, xalqaro hamkorlik	Innovatsiya ekotizimi mavjudligi	Texnologik salohiyat tezda oshishi
Barqarorlikka asoslangan	Ekologik-iqtisodiy uyg'unlik, resurs tejamkorligi	Ekologik bosim, resurs qimmatlanishi	Energiya sarfi 20–30 % qisqarishi

Tadqiqot obyektining joriy holati va faoliyat turining o'ziga xosligini inobatga olgan holda muallif tomonidan ilmiy yangilik sifatida don mahsulotlari korxonalari uchun innovatsion strategik rivojlantirishning to'rt o'lchamli konvergent modeli

¹⁹ Muallif tomonidan adabiyotlar tahlili asosida shakllantirilgan.

